

№	MUNDARIJA	Page
1.	YANGI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI SHAROITIDA AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYALASHNING MOLIYAVIY ZARURLIGI VA AHAMIYATI <i>Ametova Fotimajon Rozmatovna</i>	3
2.	ПРИМЕНЕНИЕ МСФО 17 В СТРАХОВОЙ СИСТЕМЕ УЗБЕКИСТАНА: ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ И ПОТЕНЦИАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ. АНАЛИЗ РЕЗЕРВОВ И ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫХ БАРЬЕРОВ <i>Баратова Динора Алишеровна</i>	6
3.	SUG'URTA POLISINI TANLASHDAGI MUAMMO VA AFZALLIKLAR <i>Yo'ldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	10
4.	O'ZBEKISTONDA "YASHIL SUG'URTA" MAHSULOTLARINI JORIY ETISH MASALALARI <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	13
5.	SUG'URTA TASHKILOTLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Umarova Gulnora Akromovna</i>	16
6.	O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL TRANSPORT SUG'URTASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	18
7.	O'ZBEKISTONDA AVTOTRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASINING O'RNI <i>Yakubova Nargiz Tursunbayevna, Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	20
8.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TIZIMI VA UNDAGI XAVFLAR <i>Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi, Akbaraliyeva Diyora</i>	22
9.	ПЕРСПЕКТИВЫ И БАРЬЕРЫ РАЗВИТИЯ ИСЛАМСКОГО СТРАХОВАНИЯ (ТАКАФУЛ) В УЗБЕКИСТАНЕ <i>Мурадова Дилдора Абдусалимовна</i>	26
10.	YASHIL SUG'URTA TURLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI: ILMIY-NAZARIY VA AMALIY YONDASHUV <i>Erkaboev Yorbek Boirbekovich</i>	31
11.	MILLIY SUG'URTA BOZORIDA INFORMATSION RISKLARNI SUG'URTALASHNI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xolbaev Azamat Yuldashovich</i>	34
12.	ПРЕИМУЩЕСТВА СТРАХОВАНИЕ И ЕГО РОЛЬ В ЭКОНОМИКЕ <i>Умарова Хуриида Олимжоновна</i>	38
13.	OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYALASH: HOMIYLIK MABLAG'LAG'LARIDAN FOYDALANISH <i>Dildora Bohodirovna Abdusattarova</i>	42
14.	SUVEREN KREDIT REYTING AGENTLIKLARINING BAHOLASH METODOLOGIYASIDAGI KAMCHILIKLARI TAHLILI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	45
15.	ЗЕЛЁНЫЕ ОБЛИГАЦИИ И КРЕДИТЫ: НОВЫЙ ВЕКТОР УСТОЙЧИВОГО РОСТА УЗБЕКИСТАНА <i>Гульмухамедова Дилбар Бахтиер кизи, Каримов Комилжон Хамидович</i>	48
16.	ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ПУТЬ К УСТОЙЧИВОМУ РАЗВИТИЮ СТРАНЫ <i>Гульмухамедова Дилбар Бахтиер кизи</i>	51

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



O'ZBEKISTONDA AVTOTRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASINING O'RNI

Yakubova Nargiz Tursunbayevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
yakubovanargiz1@gmail.com

Rustamov Sherzod Raxmataliyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o'qituvchisi
rustamovshrz1986@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss3/293

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyoning ilg'or davlatlarida avtotransport sug'urtasini tashkil etish tajribalari o'rganiladi va O'zbekiston sharoitiga mos ravishda tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya va Rossiya kabi mamlakatlar tajribasi asosida sug'urta bozori rivoji, qonunchilik bazasi, raqamli texnologiyalar joriy etilishi hamda fuqarolar ishonchini oshirish mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Maqola mamlakatimizda avtotransport sug'urtasi tizimini samarali shakllantirish uchun xorijiy tajribalarni hisobga olish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: avtotransport sug'urtasi, xalqaro tajriba, yo'l harakati xavfsizligi, moliyaviy himoya, raqamli texnologiyalar, ishonch indeksi.

Abstract: This article examines the experience of organizing motor transport insurance in advanced countries of the world and analyzes the possibilities of implementation in accordance with the conditions of Uzbekistan. Based on the experience of countries such as the USA, Germany, South Korea, and Russia, the development of the insurance market, the legal framework, the introduction of digital technologies, and the mechanisms for increasing citizens' trust are considered. The article justifies the need to take into account foreign experiences for the effective formation of the motor vehicle insurance system in our country.

Keywords: motor vehicle insurance, international experience, road safety, financial protection, digital technologies, trust index.

Абстрактный: В данной статье рассматривается опыт организации страхования автотранспорта в передовых странах мира и анализируются возможности реализации в соответствии с условиями Узбекистана. На основе опыта таких стран, как США, Германия, Южная Корея и Россия, рассмотрено развитие страхового рынка, правовая база, внедрение цифровых технологий, механизмы повышения доверия граждан. В статье обоснована необходимость учета зарубежного опыта для эффективного формирования системы автострахования в нашей стране.

Ключевые слова: автострахование, международный опыт, безопасность дорожного движения, финансовая защита, цифровые технологии, индекс доверия.

Kirish (Введение/Introduction).

Avtotransport sug'urtasi bugungi kunda nafaqat haydovchilar va avtomobil egalariining moliyaviy xavfsizligini ta'minlash, balki umumiy yo'l harakati xavfsizligi va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynamoqda. O'zbekistonda avtomobil egalari sonining ortib borayotgani, elektromobillar va raqamli xizmatlarga talabning kuchayishi sug'urta xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda.

Biroq mamlakatimizda ushbu sohada tizimli muammolar, jumladan sug'urta madaniyati pastligi, kompaniyalar o'rtasidagi raqobatning sustligi va zararlarni to'lash jarayonlarining murakkabligi kuzatilmoqda. Shu nuqtai nazardan, xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va mahalliy sharoitlarga moslashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Avtotransport sug'urtasi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ko'plab mamlakatlarda bu sohaning iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik jihatlarini chuqur tahlil qilgan. Xalqaro adabiyotlarda sug'urtaning nafaqat moliyaviy kompensatsiya vositasi, balki xavfsizlikni oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli alohida ta'kidlanadi. A. Tursunov o'z asarlarida O'zbekistonda avtotransport sug'urtasini rivojlantirishda xorij tajribasini o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Xususan, Yevropa va Osiyo davlatlarining sug'urta tizimlari samaradorligi, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish hamda huquqiy bazani takomillashtirish borasidagi tajribalar o'rganilishi kerak [1]. B. Karimov xorijiy davlatlarda avtomobil sug'urtasi bozorining rivojlanish omillari, jumladan, sug'urta majburiylik, elektron xizmatlar va sug'urta kompaniyalarining raqobatbardoshligi haqida tahlil qiladi [2]. Bu O'zbekiston uchun ham shu tizimlarni joriy etish samarali bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Iqtisodchi olim M. Rustamova avtotransport sug'urtasida yangi

texnologiyalar (raqamli platformalar, onlayn sug'urta) va xorij tajribasining o'rni haqida ta'kidlaydi [3]. Bu yangiliklar O'zbekiston sug'urta bozorida mijozlarga qulaylik va tezkor xizmat ko'rsatishni oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. S. Qo'chqorov asarlarida xorijiy davlatlardagi sug'urta qonunchiligi va uning amaliyotdagi o'rni solishtirib, O'zbekistonda huquqiy bazani yanada takomillashtirish zarurligini qayd etadi. Bu esa avtotransport sug'urtasining ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi [4].

Smith va Jones tomonidan olib borilgan tadqiqotda avtomobil sug'urtasi sohasida raqamli texnologiyalarning roli tahlil qilinib, mobil ilovalar, telematika (haydovchi xatti-harakatlarini baholash qurilmalari) va sun'iy intellekt yordamida xizmat sifatini oshirish usullari keltirilgan. Ushbu yondashuvlar, ayniqsa, AQSh va Kanada sug'urta bozorlarida keng tatbiq etilmoqda [5].

Professor D. Sobirov asarlarida xorijda avtotransport sug'urtasida qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalar, risklarni baholash usullari va sug'urta shartnomalarining standartlari haqida so'z yuritadi. Mamlakatimizda ham ushbu tajribalarni joriy etish sug'urta sohasini rivojlantirishga yordam beradi. [6]

N. Yo'ldoshev xorijiy sug'urta kompaniyalari faoliyatini tahlil qilgan holda, O'zbekistonda sug'urta bozorining rivojlanishi uchun xalqaro standartlar va qonunlarni qo'llash zarurligini ta'kidlaydi [7].

Z. Rajabova sug'urta xizmatlarining sifatini oshirish, mijozlarga qulaylik yaratish maqsadida xorij tajribasida foydalanilayotgan onlayn platformalar, mobil ilovalar va tezkor da'volarni ko'rib chiqadi. Ushbu yondashuvlarni mamlakatimizda joriy etish samarali bo'lishi mumkinligini qayd etadi [8].

Sh. Karimova xorijda avtotransport sug'urtasini tartibga soluvchi huquqiy normalarni tahlil qilib, mamlakatimizda ham sug'urta tizimini yanada rivojlantirish uchun qonunchilikni takomillashtirish lozimligini ta'kidlaydi [9].

Germaniyada avtotransport sug'urtasi bozorini tartibga soluvchi BaFin (Bundesanstalt für Finanzdienstleistungsaufsicht) agentligi yillik hisobotlarida majburiy sug'urtaning aholiga ijobiy ta'siri, xizmatlar sifati va kompaniyalar raqobatbardoshligi bo'yicha ko'rsatkichlarni e'lon qilib boradi. Ushbu tajriba sug'urta tizimining shaffofligini ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot usullari (Методология/Methodology).

Tadqiqotni amalga oshirish davomida ekspert baholash, umumlashtirish, taqqoslash, tarixiy va mantiqiy yondashuv, tanqidiy tahlil, statistik ma'lumotlarni guruhlash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты. Analysis and results).

AQShda avtotransport sug'urtasi bozorida 200 dan ortiq kompaniyalar faoliyat yuritadi. Bozordagi raqobat mijozlar uchun xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi. Eng muhim jihat — individual risk baholash tizimi, ya'ni haydovchining yoshidan tortib haydash odatlarigacha tahlil qilinadi. Bunda telemetriya qurilmalari (masalan, "black box") keng qo'llaniladi.

O'zbekistonda " intellektual haydovchi reytingi" tizimini joriy etish orqali sug'urta mukofotlarini diferensiallashtirish mumkin.

Germaniyada avtotransport sug'urtasi majburiy bo'lib, sug'urta kompaniyalari faoliyati qat'iy tartibga solinadi. Sug'urta polisini onlayn tarzda tekshirish va avtomatik monitoring qilish tizimi mavjud. Shuningdek, har yili xizmat sifati bo'yicha iste'molchilar bahosi e'lon qilinadi.

Sug'urta kompaniyalarining reytingini ochiq qilish, zararlarni ko'rib chiqish muddatlarini qonun bilan belgilash.

Janubiy Koreyada avtomobil sug'urtasi raqamlashtirilgan: sug'urta polislarining 95 foizi mobil ilovalar orqali rasmiylashtiriladi. Sug'urta kompaniyalari avariya joyiga 10 daqiqada yetib borish xizmatini yo'lga qo'ygan. Bundan tashqari, haydovchilarga yo'l harakati qonunlari bo'yicha interaktiv treninglar o'tkaziladi.

O'zbekistonda ham mobil ilovalar orqali sug'urta rasmiylashtirish, avariya holatlarida tezkor xizmat ko'rsatish infratuzilmasini joriy etish lozim.

Rossiyada "OSAGO" majburiy avtosug'urta tizimi joriy etilgan. Da'volarni ko'rib chiqish onlayn portal orqali amalga oshiriladi, bu fuqarolarning sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, 2022 yildan boshlab sun'iy intellekt asosida zarar baholash tizimi sinovdan o'tkazilmoqda [10].

Sug'urta kompaniyalariga raqamli integratsiya majburiyatini yuklash va zarar baholashni avtomatlashtirish.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, avtotransport sug'urtasini samarali tashkil etish uchun quyidagi omillar muhim:

1. Sug'urta mukofotlarini individual baholash asosida hisoblash.
2. Shaffof va tezkor zarar to'lov tizimini joriy etish.
3. Mobil ilovalar orqali polis olish va da'vo bildirishni soddalashtirish.
4. Sug'urta kompaniyalari faoliyatini ochiq reyting asosida baholash.
5. Sug'urta madaniyatini interaktiv usullar orqali oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литература/References):

1. A. Tursunov "Sug'urta bozori va uni rivojlantirish istiqbollari" maqola "Ta'lim va innovatsiyalar jurnali" 2-son 2018 yil
2. B. Karimov "Sug'urta faoliyati va xalqaro tajribalar" maqola "Moliya va hisob" ilmiy jurnali 3-son 2020 yil
3. M. Rustamova "Sug'urta bozorida innovatsiyalar va rivojlanish" maqola Biznes-ekspert jurnali 1-son 2021yil
4. S. Qo'chqorov "Sug'urta huquqi va sug'urta bozori rivojlanishi" maqola "Yashil iqtisodiyot" jurnali 4-son 2019 yil
5. Smith, J., & Jones, A. (2021). Digitalization in Car Insurance: Global Insights. Insurance Press. 2020 y
6. D. Sobirov "Avtotransport sug'urtasida innovatsiyalar va global tajriba" maqola "Ta'lim va innovatsiyalar" 2-son 2022 yil
7. N. Yo'ldoshev "Sug'urta bozori: xalqaro tajribalar va milliy rivojlanish" maqola Biznes-ekspert jurnali 3-son 2017 yil
8. Z. Rajabova "Sug'urta xizmatlarini takomillashtirish: xalqaro yondashuvlar" maqola "Mudarris Ziyov" electron jurnali 2-son 2019 yil
9. Sh. Karimova "Sug'urta huquqi va xalqaro tajribalar" maqola "Moliya" jurnali 3-son 2020 yil
10. Islomov, M. (2021). Avtomobil sug'urtasi: muammo va istiqbollari. Risola TMI 2022 yil.

O'zbekiston avtotransport sug'urtasini rivojlantirishda ushbu xalqaro yondashuvlarni moslashtirish holda, raqamli va ishonchli xizmatlar tizimini shakllantirishi lozim. Bu nafaqat fuqarolarning moliyaviy himoyasini ta'minlaydi, balki butun yo'l harakati xavfsizligini oshiradi.

1-jadval¹

Xorijiy davlatlar tajribasida avtotransport sug'urtasining asosiy jihatlari			
Davlat	Asosiy yondashuvlar	Afzalliklari	O'zbekiston uchun moslashtirish imkoniyati
AQSh	Individual risk baholash, telemetriya qurilmalari	Raqobatbardoshlik, mukofotlarni moslashtirish	Haydovchi reytingi asosida mukofotlarni belgilash
Germaniya	Majburiy sug'urta, davlat nazorati (BaFin), iste'molchi bahosi	Shaffoflik, xavfsizlik, davlat kafolati	Kompaniyalar reytingini joriy qilish
Janubiy Koreya	To'liq raqamlashtirish, mobil ilovalar, tezkor xizmat	10 daqiqalik yordam, raqamli polis, sun'iy intellekt	Mobil ilova orqali polis va tezkor javob xizmati
Rossiya	OSAGO, elektron polis, onlayn da'vo, SI yordamida baholash	Zarar avtomatik hisoblash, da'vo nazorati	Elektron platforma va avtomatik zarar baholash tizimi

Jadvalda keltirilgan har bir davlat yondashuvi O'zbekiston sug'urta tizimiga bosqichma-bosqich moslashtirish orqali kiritilishi mumkin. Ayniqsa, raqamli xizmatlar, fuqarolar ishonchini oshirish va shaffoflikni ta'minlash jihatlari dolzarb hisoblanadi.

Xulosa (Заключение/Conclusion).

O'zbekistonda avtotransport sug'urtasi sohasining zamonaviy talablar asosida rivojlanishi iqtisodiy barqarorlik, yo'l harakati xavfsizligi va aholining moliyaviy himoyasini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqolada tahlil qilingan xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda avtosug'urta tizimining samaradorligi quyidagi asosiy omillarga tayanadi:

1. Raqamlashtirish — sug'urta polislarini onlayn rasmiylashtirish, zararlarni avtomatik baholash, mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatish.
2. Shaffoflik va davlat nazorati — kompaniyalar faoliyatining ochiqligi, mustahkam qonunchilik va tartibga solish mexanizmlari.
3. Iste'molchi ishonchi — sug'urta xizmatlari sifatiga doir ochiq reytinglar, da'volarni tezkor va adolatli ko'rib chiqish tizimi.
4. Innovatsion yondashuvlar — haydovchi xatti-harakatlarini baholovchi qurilmalar, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan risk tahlili.

O'zbekiston sug'urta tizimi hali to'laqonli shakllanmagan bo'lib, xorijiy ilg'or yondashuvlarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali ushbu sohani isloh qilish mumkin. Xususan:

- Haydovchi reytingi asosida mukofotlar miqdorini belgilash;
- Sug'urta kompaniyalarining reytingini e'lon qilish;
- Onlayn da'vo arizalari va avtomatik zarar baholash tizimini yo'lga qo'yish;
- Sug'urta madaniyatini oshirish bo'yicha ommaviy axborot vositalari va ta'lim tizimi orqali targ'ibot olib borish.

Shu bilan birga, milliy qonunchilikka xorijiy tajribalarning mos jihatlarni integratsiyalash, sug'urta xizmatlarini xalqaro standartlarga muvofiq tarzda takomillashtirish mamlakatimizda transport sug'urtasi sohasining raqobatbardosh va ishonchli tizim sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, fuqarolarning moliyaviy xavfsizligi va yo'l harakati madaniyatining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.